

O'ZBEKISTONDA TA'LIMDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH: QIZLAR UCHUN TENG IMKONIYATLAR HOLATI TAHLILI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15336498>

Bozorova Saxobat Abdujapparovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

PhD.dots.

s.abdujabbarovna@gmail.com

Annotasiya

Mazkur maqolada O'zbekistonda ta'lim va fan sohalarida gender tenglikni ta'minlash borasidagi mavjud holat tahlil qilinib, qizlar uchun teng imkoniyatlarni yaratishdagi muvaffaqiyatlar va muammoli jihatlar atroflicha ko'rib chiqiladi. Maqola so'ngida O'zbekistonda ta'limda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar

Gender tenglik, ta'limda imkoniyatlar, ayoi -qizlar ta'limi, STEM sohaları, inson kapitali, Barqaror rivojlanish maqsadlari, O'zbekistonda ta'lim islohotlari, ijtimoiy stereotiplar

KIRISH

Jahon hamjamiyati tomonidan gender tenglikni ta'minlash barqaror rivojlanish jarayonining tarkibiy qismi sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, ta'lim va fan sohalarida ayollar va qizlar uchun teng imkoniyatlar yaratish masalasi so'nggi yillarda global miqyosda ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanmoqda. Bu masala Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2015 yilda qabul qilingan Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals – SDGs) da o'z aksini topgan. Xususan, 4-maqсад – “Barcha uchun inklyuziv va sifatli ta'limni ta'minlash va barcha fuqarolar uchun uzluksiz ta'lim imkoniyatlarini yaratish”, hamda 5-maqсад – “Gender tenglikka erishish va barcha ayollar hamda qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish”ga bag'ishlangan bo'lib[1]. Ushbu maqsadlarga erishish nafaqat global darajada, balki har bir milliy darajada, jumladan, O'zbekiston Respublikasida ham dolzarb ijtimoiy-siyosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda ayollar va qizlarning ta'lim sohasiga keng jalb etilishi, ularning ilm-fanga qiziqishini oshirish, ayniqsa, STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida ishtirokini

rag'batlantirishga qaratilgan qator davlat dasturlari va tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi kunda, milliy qonunchilikda ayollarning ta'limga bo'lgan huquqlari kafolatlangan bo'lib, bu sohada qator islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 28 may 2021 yilda qabul qilingan "2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi qarori, bu yo'nalishdagi eng muhim tashabbuslardan biridir [2].

Shu bilan birga, ta'lim tizimidagi mavjud institusional to'siqlar, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, madaniy stereotiplar va qizlarning yuqori texnologiyali sohalarga kirishidagi muammolar hamon dolzarbligini saqlab turibdi. Qizlar va ayollarning STEM sohalariga kirishining oldini olishdagi asosiy omillardan biri - ijtimoiy stereotiplardir. Bu stereotiplar jamiyatning texnologik va ilm-fan sohalariga oid ayollarga va qizlarga nisbatan to'g'ri va adolatli munosabatni shakllantirmasligiga olib keladi. Tadqiqotlar ko'rsatishicha, ko'pgina jamiyatlarda ayollar va qizlar fan va matematika sohalarida muvaffaqiyatga erishishga nisbatan aniq ko'pgina to'siqlarga duch keladilar.

Bu muammolarning samarali yechimlari faqat davlat siyosatini to'g'ri yo'naltirish orqali erishiladi. Buning uchun avvalo, har bir qiz uchun maktabdan oliy ta'limgacha bo'lgan barcha bosqichlarda teng imkoniyatlar yaratish lozim. Shu bilan birga, ayollarning STEM sohalarida ishtirokini oshirish uchun maxsus dasturlar, stipendiyalar va motivasion loyihalarni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu sohada faoliyat yuritish uchun ayollar va qizlarning rivojlanishiga qaratilgan dasturlar to'g'risidagi ma'lumotlar talab qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Global miqyosda ta'lim va fan sohalarida gender tenglikni ta'minlash masalasi jamiyatning barqaror rivojlanishi va inson kapitali salohiyatini yuksaltirishda muhim omil sifatida qaralmoqda. Bu borada xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Amartya Senning "Development as Freedom" asarida ta'lim insonning "erkinligini" rivojlantirish uchun asosiy vosita deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha: "Ayollar va qizlarga ta'lim berish nafaqat ularning shaxsiy imkoniyatlarini kengaytiradi, balki butun jamiyat uchun ijtimoiy va iqtisodiy foyda keltiradi" [3].

Martha Nussbaumning "Creating Capabilities: The Human Development Approach" kitobida insonning rivojlanishini qadriyatlar nazariyasiga asoslangan holda, ta'limni insonlarning haqiqiy imkoniyatlarini rivojlantirish vositasi sifatida ko'rsatadi. Olimning fikricha, gender tenglik ta'lim orqali ayollarga turli sohalarda "qadriyatlar"ga ega bo'lish, ta'lim faqat jamiyatni rivojlantirishga yordam

bermasdan, ayollarga quvvat berish, ularga hayotda mustaqil bo'lish va gender tenglikni ta'minlash imkonini beradi. Ta'limning maqsadi insonlarning imkoniyatlarini kengaytirish va ularga haqiqiy erkinlikka erishishni ta'minlashdan iborat [4].

Nancy Frasierning "Justice Interruptus: Critical Reflections on the "Postsocialist" Condition" asarida feministik siyosati va gender tenglikni ta'lim sohasida ta'minlash zaruriyati muhokama qilingan. Uning nazariyasiga ko'ra, ta'limda gender tenglik faqat ayollarga teng huquqlarni taqdim etishdan iborat emas, balki ijtimoiy to'siqlarni ham yo'qotishga xizmat qilish kerak. Fraser ta'kidlagani kabi, ta'limda gender tenglikni ta'minlash orqali feministik siyosatni targ'ib qilish, ya'ni ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy sohalarda teng huquqlarga ega bo'lishini ta'minlash, inson huquqlarini kafolatlaydi. Ushbu qarashlar ta'limda jamiyatdagi barcha guruhlar uchun teng imkoniyatlarni yaratishni rag'batlantiradi[5].

Simone de Beauvoirning "The Second Sex" asarida ayollarning ta'limda bo'lgan imkoniyatlar muhokama qilingan. Bovuar ta'limning ayollarga nisbatan mavjud ijtimoiy stereotiplar va diskriminasiyaning oldini olish uchun muhim mexanizm ekanligini ta'kidlaydi. Bovuarning fikricha, ta'lim jamiyatdagi gender rollariga qarshi kurashish va ayollarning mustaqilligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Gender tenglik faqat ayollarning o'qishga ega bo'lishiga emas, balki ularning jamiyatdagi haqqoniy o'rnini belgilashga yordam beradi [6].

Laura Bertening "Gender, Competition and Educational Opportunity" nomli tadqiqoti ta'limda gender tenglikni raqobat va imkoniyatlar asosida qarashga yo'naltirilgan. Olimning qarashlari, ayollar va qizlarning ilm-fan, texnologiya va muhandislik sohasidagi ishtiroki, ta'limda teng imkoniyatlar yaratish uchun muhim ahamiyatga ega. Berton ta'limda gender tenglikka erishish orqali ayollarning texnologik sohalardagi ishtirokini rag'batlantirish, jamiyatning innovation rivojlanishiga hissa qo'shishga yordam beradi. Bu esa gender tenglikning muhim aspektlaridan biri hisoblanadi [7].

Alice Evansning "Gender and Development" nomli asarida ta'lim va gender tenglikning ijtimoiy rivojlanishga ta'siri ko'rsatilgan. Uning fikricha, ta'lim faqat iqtisodiy imkoniyatlar yaratmay, balki ayollarning ijtimoiy rolini o'zgartirishga ham yordam beradi. Evans ta'kidlaganidek, ta'limda gender tenglikka erishish ayollarning o'zlari uchun mustaqil qarorlar qabul qilish, hayotdagi yangi yo'nalishlarni tanlash va ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikka erishishga yordam beradi [8].

Charlotte Hoggning "Technological Education and Gender Equality" nomli tadqiqoti ta'limdagi raqamli texnologiyalar va ularning gender tenglikni

ta'minlashdagi roliga qaratilgan. Uning fikricha, raqamli ta'lim va onlayn ta'lim platformalari ayollar uchun ta'limga teng va o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Xoggs ta'kidlagani kabi, raqamli ta'lim texnologiyalari ayollarning ta'limga bo'lgan imkoniyatlarini kengaytirish va ularga texnologik sohalarida faol ishtirok etish imkonini beradi [9].

Olimlarning ishlarida ta'limdagi gender muvozanatsizligi, uning ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini hamda qizlar uchun teng imkoniyatlarni yaratish mexanizmlari chuqur tahlil etilgan. Ushbu tadqiqotlar asosida, qizlar uchun ta'lim va fan sohalarida teng imkoniyatlar yaratish masalasi nafaqat adolat tamoyili, balki milliy taraqqiyot strategiyasi doirasida ham muhim ahamiyat kasb etayotgani ayon bo'lmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda ta'lim va fan sohalarida gender tenglikni ta'minlash, ayniqsa, qizlar uchun teng imkoniyatlarning holati va istiqbollari tahlil qilish maqsad qilindi. Tadqiqot jarayonida ilmiy yondashuv sifatida tizimli tahlil, kompleks baholash, qiyosiy tahlil, empirik ma'lumotlarni tahlil qilish va guruhlash usullari qo'llanildi. Tadqiqotda empirik usullar ham qo'llanilib, ta'lim muassasalari va vazirliklar rasmiy ma'lumotlari asosida qizlar uchun imkoniyatlar va to'siqlar tahlil qilindi.

ASOSIY NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Qizlar va ayollar uchun teng imkoniyatlar yaratilishi nafaqat ularning shaxsiy salohiyatini ro'yobga chiqarish, balki milliy inson kapitali salohiyatini yuksaltirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, STEM (fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida qizlar ishtirokining oshishi mehnat bozorida gender muvozanatini ta'minlash, yangi innovasion salohiyatni shakllantirish va iqtisodiyotda raqobatbardosh kadrlar zaxirasini yaratishda muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim tizimini inklyuziv va genderga sezgir yo'nalishda isloh qilish, qizlarni ilm-fan sohalariga jalb etishni rag'batlantiruvchi milliy dastur va konsepsiyalarni amalga oshirish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekistonda ta'lim va fan sohalarida gender tenglikni ta'minlash masalasi jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, ayollarning ulushi tibbiyot tizimida 77 foizdan ko'proqni, ta'lim sohasida salkam 74 foiz, savdoda 49 foiz, iqtisodiyot tarmoqlari, sanoat va ishlab chiqarishda qariyb 46 foiz, madaniyat va sportda 45 foiz, qishloq xo'jaligida 42 foizdan ziyodni, moliya va sug'urta faoliyatida 37 foizdan ortiqni, axborot va aloqa xizmatida 35 foiz, professional, ilmiy va texnik faoliyatda qariyb 34 foizni, davlat

boshqaruvi va mudofaa tizimida 27 foizdan ko'proqni tashkil etmoqda. Joriy o'quv yilida respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan xotin-qizlar ulushi 52,2 foizni tashkil etgan.

Mamlakatimizning gender tenglik sohasidagi erishgan yutuqlari xalqaro darajada munosib e'tirof etilmoqda. O'zbekiston 2024 yilda gender tenglik va boshqaruv indeksi bo'yicha 72,8 ball to'pladi. Natijada 103- o'rindan 51 pog'onaga ko'tarilib, 52-o'rinni egallashga muvaffaq bo'lgan. Ushbu indeks 158 ta mamlakatni qamrab olib, gender tenglikka erishish yo'lida muvaffaqiyat va kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi [10].

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasida, xususan, gender tenglikni ta'minlash va qizlar uchun teng imkoniyatlar yaratish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar o'zining aniq ifodasini statistik ko'rsatkichlar va ijtimoiy tahlillarda ham namoyon bo'lmoqda. 2021-2023 yillar kesimida o'quv muassasalariga ajratilgan mablag'lar hajmidagi o'sish va gender tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan tashabbuslar bu jarayonning ijobiy rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval

Oliy ta'lim tashkilotlarida erkak va ayol talabalarning soni tahlil (2019-2023 yillar)

Klassifikator	2021 yil		2022 yil		2023 yil		2023 yilda ayollarning 2021 yilga nisbatan (%)	
	Erkak	Ayol	Erkak	Ayol	Erkak	Ayol	Erkak	Ayol
O'zbekiston Respublikasi	439391	369048	547342	494758	657925	656617	49,7	77,9
Qoraqalpog'iston R	22479	24106	28626	28877	30792	33354	36,9	38,3
Andijon	24432	23219	29088	29224	31552	34649	29,1	49,2
Buxoro	22508	21451	27290	30194	36929	46022	64,0	114,5
Jizzax	15682	14273	18549	18402	17543	20025	11,8	40,3
Qashqadaryo	26768	17454	30605	26821	40756	37641	52,2	115,6
Navoiy	8948	12762	12645	17649	15712	23101	75,5	81,0
Namangan	21408	20421	26982	25337	29938	32590	39,8	59,5
Samarqand	41828	28944	46774	37965	48774	41814	16,6	44,4
Surxondaryo	20301	19608	24737	25897	32043	35363	57,8	80,3
Sirdaryo	7745	9019	9950	11574	10107	13083	30,5	45,0
Toshkent	25551	17277	33665	26734	37393	35183	46,3	103,6
Farg'ona	28741	33591	35542	42180	36602	48294	27,3	43,7
Xorazm	12509	16232	16861	25909	20701	33242	65,4	104,7

Toshkent sh	160491	110691	206028	147995	269083	222256	67,6	100,7
-------------	--------	--------	--------	--------	--------	--------	------	-------

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki 2021 yilda respublika bo'yicha ayollar soni 369 048 nafar bo'lgan bo'lsa, 2023 yilga kelib bu ko'rsatkich 656 617 nafarga yetgan. Bu 77.9% o'sishni anglatadi. Erkaklar soni ham 439 391 nafardan 657 925 nafargacha (49.7%) oshgan. 2021–2023 yillarda ayollar soni erkaklarnikidan tezroq o'sgan. Bu oliy ta'limda gender tengligiga erishish bo'yicha davlat siyosatining samarasini anglatadi.

Hududlar bo'yicha oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan qizlar ulushi eng yuqori o'sgan hududlar Qashqadaryo 115,6%ni, Xorazm 104,7%ni, Toshkent viloyati 103,6%, Toshkent shahri 100,7%, Buxoro 114,5% ga o'sgan

Bu hududlarda ayollar soni 2 baravarga yaqin yoki ko'proq o'sgan. Bu yerlarda oliy ta'limga qizlar orasida qiziqish juda katta, infratuzilma va imkoniyatlar keng. Toshkent shahri va viloyatida markazlashgan ta'lim muassasalari, qo'shimcha imtiyozlar, texnik va IT sohaga qiziqish o'sishi muhim rol o'ynagan.

Ta'lim muassasalarida qizlar ulushi o'rtacha o'sgan hududlar sifatida Navoiy 81,0% ga, Surxondaryo 80,3% ga, Samarqand 44,4% ga, Sirdaryo 45,0%ga , Andijon 49,2% ga , Farg'ona 43,7% ga , Namangan 59,5% ga o'sgan.

Bu hududlarda ham o'sish juda yaxshi. Masalan, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida qizlar oliy ta'limda faol ishtirok etmoqda, bu yerlardagi ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, yangi OTMLar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari o'z samarasini bermoqda.

Qizlar ulushi nisbatan past o'sgan hududlar sifatida Jizzax 40,3% ga, Qoraqalpog'iston 38,3% ga o'sgan bo'lib, bu hududlarda ham o'sish bor, ammo boshqa hududlarga nisbatan sekinroq. Shu bilan birga, Jizzaxda ayollar o'sishi erkaklarnikidan to'rt baravar yuqori bo'lgani muhim omil hisoblanadi. Qoraqalpog'istonda esa o'sish barqaror, lekin hozircha boshqa hududlarga nisbatan past darajada.

Umuman olganda barcha hududlarda ayollar soni erkaklarnikidan tezroq o'sgan. Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm, Toshkent shahri va viloyati – qizlar ta'limida yetakchi hududlar. O'rta darajada o'sish Surxondaryo, Navoiy, Samarqand, Farg'ona, Namanganda kuzatilgan. E'tibor talab qiladigan hududlar – Qoraqalpog'iston va Jizzax, bu hududlarda qo'shimcha motivasiya, grantlar va dasturlar orqali qo'llab-quvvatlash kerak. Bu O'zbekistonda oliy ta'limda gender tengligi bo'yicha davlat siyosatining ijobiy samarasi hisoblanadi. Ayniqsa Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm, va Toshkent shahrida ayollar soni ikki baravardan

ziyod o'sgan. Qishloq joylarda ham (Jizzax, Qoraqalpog'iston, Navoiy) o'sish sezilarli bo'lmoqda – bu ta'lim infratuzilmasining kengayishi bilan bog'liq.

2-jadval

O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlarida tayanch doktoranturada tahsil oluvchi soni tahlili

Klassifikator	2016 yil	2017 yil	2018 yil	2019 yil	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2023 yilda 2016 yilga nisbatan %
Tahsil oluvchilar soni (jami)	1370	1632	1764	2247	2674	3880	5747	7323	4 marta ortgan
Tahsil oluvchilar soni (erkaklar)	896	1048	1135	1423	1634	2525	3375	3880	3 marta ortgan
Tahsil oluvchilar soni (ayollar)	474	584	629	824	1040	1355	2372	3443	6 marta ortgan

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2016 va 2023 yillar davomida O'zbekistonda oliy ta'limdan keyingi bosqichda tadqiqot bilan shug'ullanayotgan ayol qizlarimiz ulushi qanday o'zgargani tahlil qilinadi. 2016 yilda O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlarida tayanch doktoranturada tahsil oluvchilarning umumiy sonida ayollar qizlarning ulushi 36% atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich qariyb 50% ga yetgan. Bu juda katta o'sish bo'lib, ayollarning oliy ta'limdagi ishtirokidagi tenglashuvni ko'rsatadi. Bu natija mamlakatimizda ayol-qizlar uchun ta'lim sohasida keng imkoniyatlar yaratilganini, ularning ta'limga bo'lgan qiziqishi va ishtirokini kuchayganini yaqqol namoyon etmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

So'nggi yillarda O'zbekistonda ayol-qizlarning oliy ta'limdagi ishtiroki keskin oshmoqda. Barcha hududlarda qizlar sonining o'sish sur'ati erkaklarnikidan yuqori bo'lib, bu gender tengligini ta'minlash va ta'limda teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan davlat siyosatining amaliy samarasidir.

Ayol-qizlarga ta'lim sohasida teng imkoniyatlar yaratilishi, bilimli ta'limli ayollar sonining ortishi mehnat bozorida raqobatbardosh va malakali ishchi kuchining ko'payishi, ayollarning ta'lim va bandlikdagi ishtiroki orqali inson kapitali sifati oshishi kuzatiladi.

Qolaversa ayollarga ta'limda teng imkoniyatlar yaratilganda, ularning mehnat bozorida ishtirok etish ehtimoli keskin oshadi. Bu esa ishchi kuchi zaxirasini

kengaytiradi va iqtisodiyotda ko'proq inson kapitali faol bo'lishiga olib keladi. Ayollarning turli sohalarda — ta'lim, sog'liqni saqlash, moliya, sanoat, turizm va boshqalardagi faol ishtiroki milliy ishlab chiqarish hajmini oshiradi.

Ayol-qizlar ta'lim orqali yangi kasblar, ko'nikmalar va zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish orqali ishga joylashish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. Bu, o'z navbatida, mehnat bozorida faol ishtirokchilar sonini ko'paytiradi va rasmiy sektorda ishlashni rag'batlantiradi. Ayollar ishga joylashishi bilan ishsizlik darajasi kamayadi, ayniqsa yoshlar va qishloq ayollari orasida. Ish bilan ta'minlangan ayollar oilaviy farovonlikni ham ta'minlaydi, bu esa umumiy iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi.

Ta'lim inson kapitali rivojlanishining asosidir. Ayol-qizlarning ta'limga keng jalb qilinishi nafaqat ularning shaxsiy salohiyatini oshiradi, balki ular orqali kelajakdagi avlodlarning intellektual, ma'naviy va kasbiy salohiyati ham yuksaladi. Ayollar oilada farzandlar tarbiyasida asosiy o'rin tutadi, shu bois ularning savodxon va bilimli bo'lishi butun jamiyatning inson kapitali sifatini belgilaydi. Sog'lom turmush tarzi, ta'limga ahamiyat berish, bolalardagi erta rivojlanish kabi omillar bevosita ta'limli onalar orqali ta'minlanadi.

Ta'limli va kasbiy jihatdan tayyorlangan ayollar ish joyida yuqori samaradorlik ko'rsatadi. Ular tezroq murakkab vazifalarni o'zlashtiradi, texnologik yangiliklarga moslasha oladi va tashkilotdagi ish jarayonlarini optimallashtirishga hissa qo'shadi. Masalan, ta'limli ayollar sog'liqni saqlash, ma'lumot texnologiyalari, biznes boshqaruvi kabi sohalarda yuqori natijalarni ko'rsatmoqda. Bunday mehnat samaradorligi butun tashkilot va soha kesimida ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Ayol-qizlar ta'lim olgach, mutaxassislikka ega bo'lib, munosib ish o'rinlarini egallash imkoniga ega bo'ladi. Bu ularning daromad manbaini barqarorlashtirishga va oila byudjetiga faol hissa qo'shishiga xizmat qiladi. Ta'limli ayollar o'z biznesini ham yo'lga qo'ya oladi, bu esa tadbirkorlik faoliyati orqali yangi ish o'rinlari yaratilishiga sabab bo'ladi. Buning natijasida kambag'allik darajasi pasayadi va ijtimoiy tenglik ta'minlanadi. Ta'lim — ijtimoiy lift vazifasini bajarib, ayollarni kam ta'minlangan qatlamdan farovonlik sari yetaklaydi.

Ta'limda gendr tenglikni ta'minlash, ayol-qizlarga ta'limdagi imkoniyatlarini kengaytirishga imkon beruvchi bir necha takliflarni ilgari suramiz:

- Qishloq va chekka hududlardagi qizlarning ta'limda teng imkoniyatlarini ta'minlash maqsadida hududiy asosda maxsus qabul kvotalari joriy etish, ijtimoiy holati og'ir oilalardan chiqqan qizlar uchun ta'lim grantlari va stipendiyalar tizimini kengaytirish, masofaviy va gibrid ta'lim imkoniyatlarini yaratish zarur.

- Oliy ta'lim muassasalarida gender tengligini ta'minlash maqsadida mutaxassislik, muvaffaqiyat darajasi, ijtimoiy faollik kabi ko'rsatkichlar asosida maxsus indikatorlardan iborat "Gender tengligi indeksi"ni ishlab chiqish, ushbu indeks asosida muassasalar faoliyatini baholash, reyting tuzish va natijalardan kelib chiqqan holda grantlar yoki moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq.

- Qizlar uchun real va ilhomlantiruvchi namuna sifatida turli sohalarda muvaffaqiyat qozongan ayollarni keng targ'ib qilish, ular ishtirokida uchrashuvlar va ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etish, mahalliy va milliy miqyosda maxsus loyihalar orqali qizlarning kasbiy orzulari va ishonchini mustahkamlash choralari ko'rish.

- Ayollarning STEM sohalaridagi ishtirokini kengaytirish maqsadida maktab yoshidan boshlab qizlarni ilm-fan va texnologiyaga qiziqtiruvchi tadbirlar, olimpiadalar va kodlash kurslari o'tkazish, universitetda ushbu yo'nalishda o'qishni tanlagan qizlar uchun maxsus grantlar ajratish, shuningdek, ayol mutaxassislar ishtirokida mentorlik platformalarini yo'lga qo'yish zarur hisoblanadi.

Ushbu takliflar ayol qizlarimiz uchun ta'limda teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. *Barqaror rivojlanish maqsadlari (Sustainable Development Goals – SDGs)*. Nyu-York: BMT nashriyoti 2015.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining 28 may 2021 yilda qabul qilingan "2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ -297 - IV - con qarori.
<https://lex.uz/uz/docs/5466673>

3.K.S.Amartya. *Development as Freedom*. Alfred A. Knopf. 1999.

4.Nussbaum, M. *Creating Capabilities: The Human Development Approach*. Harvard University Press. 2011.

5.Nancy Fraser *Justice Interruptus: Critical Reflections on the "Postsocialist" Condition*. Routledge 1997.

6.Bovuar, S. *The Second Sex*. Alfred A. Knopf 1956 .

7.Berton, L. *Gender, Competition and Educational Opportunity*. Journal of Educational. Equality 2013.

8.Evans, A. *Gender and Development*. Polity Press 2010.

9.Xoggs, Sh. *Technological Education and Gender Equality*. Journal of Educational Technology and Society 2015.